ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 28.05.2026 · Accepted: 15.08.2026 · Published: 04.09.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/3vvq6084

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 2 (3), 2026
www.jnculture.uz

Dutor ijrochiligida badiiy ifoda, zarb tizimi va an’anaviy ijro maktablari

(Artistic Expression, Rhythmic Patterns,
and Traditional Performance Schools in Dutor Playing)

Bekzod Safarov

Department of Doston Performance
The Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
100001, Mustaqillik, 1
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: bekzod19821906@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada dutor cholg‘usining o‘zbek an’anaviy musiqa madaniyatidagi o‘rni, uning tuzilish va sozlanish xususiyatlari, zarb tizimi, tovush hosil qilish usullari hamda hududiy ijrochilik maktablari ilmiy-amaliy nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Dutorning ikki torli tuzilishi sodda ko‘rinsa-da, ijro jarayonida kuy va usulni bir paytda olib borish, o‘ng qo‘l zarblarini badiiy maqsadga bo‘ysundirish, chap qo‘l pardalarida ohangning mayda intonatsion nozikliklarini saqlash sozandadan yuqori darajadagi eshituv, koordinatsiya va uslubiy tafakkurni talab qilishi asoslandi. Maqolada yakka, qo‘sh, teskari, terma, bilak, ufor zarblari, rez va pirrang kabi usullar alohida vazifaga ega ijro vositalari sifatida ko‘rib chiqildi. Shuningdek, Xorazm, Toshkent va Andijon dutorchilik an’analarining shakllanishida ustoz-shogird tizimi va yirik sozandalar tajribasining ahamiyati yoritildi. Maqolaning ilmiy yangiligi dutor ijrosidagi zarb, tembr, artikulyatsiya va frazalash unsurlarini alohida texnik hodisalar sifatida emas, balki badiiy talqinning yagona tizimi sifatida baholashdan iborat.

Kalit so‘zlar: dutor, cholg‘u ijrochiligi, zarb, rez, pirrang, maqom, badiiy talqin, ustoz-shogird, ijro maktabi, tembr.

Abstract

The article analyzes the place of the dutar in Uzbek traditional musical culture, its construction and tuning, system of performance techniques, methods of sound production, and regional performance schools from a scholarly and practical perspective. Although the dutar has a seemingly simple two-string construction, performing melody and usul simultaneously, subordinating right-hand strokes to artistic aims, and preserving subtle intonational nuances with the left hand require highly developed aural skills, coordination, and stylistic thinking. Yakka, qo‘sh, teskari, terma, bilak, and ufor strokes, as well as rez and pirrang, are examined as techniques with distinct performative functions. The article also discusses the importance of the ustoz–shogird system and the experience of major musicians in the formation of the Khorezm, Tashkent, and Andijan dutar traditions. The scholarly

novelty of the study lies in treating stroke, timbre, articulation, and phrasing not as isolated technical phenomena but as an integrated system of artistic interpretation.

Keywords: dutar, instrumental performance, zarb, rez, pirrang, maqom, artistic interpretation, ustoz–shogird, performance school, timbre.

Аннотация

В статье с научно-практической точки зрения анализируются место дутара в узбекской традиционной музыкальной культуре, особенности его строения и настройки, система исполнительских приемов, способы звукоизвлечения и региональные исполнительские школы. Обосновывается, что при внешне простой двухструнной конструкции дутара одновременное ведение мелодии и усуля, подчинение приемов правой руки художественной задаче, а также сохранение тонких интонационных оттенков на ладах левой рукой требуют от музыканта развитого слуха, координации и стилевого мышления. Рассматриваются якка, куш, тескари, терма, билак и уфор удары, а также рез и пирранг как приемы с самостоятельными исполнительскими функциями. Освещается значение системы «устоз–шогирд» и опыта крупных музыкантов в формировании хорезмской, ташкентской и андижанской традиций дутарного исполнительства. Научная новизна статьи состоит в рассмотрении зарба, тембра, артикуляции и фразировки не как разрозненных технических явлений, а как единой системы художественной интерпретации.

Ключевые слова: дутар, инструментальное исполнительство, зарб, рез, пирранг, маком, художественная интерпретация, устоз–шогирд, исполнительская школа, тембр.

O‘zbek an’anaviy cholg‘u madaniyatida dutor xalqona soddalik bilan professional ijrochilik mezonlarini birlashtirgan noyob sozlardan biridir. Uning ikki torli tuzilishi, mayin tembri va inson ovoziga yaqin ifodaviy tabiati dutorni xonaki musiqadan tortib mumtoz kuylar, ashula jo‘rnavozligi va maqom ansambllarigacha bo‘lgan keng ijro muhitiga olib kirgan. Dutorning badiiy qimmati torlar sonining ko‘pligi yoki kuchli ovoz bilan emas, oz vosita orqali rang-barang ohang yaratish imkoniyati bilan belgilanadi. Shu sababli dutor ijrochiligini faqat cholg‘u texnikasi doirasida emas, balki milliy musiqiy tafakkurning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Dutor atamasining o‘zi cholg‘uning asosiy tuzilish belgisini ifodalaydi: fors-tojik tilidagi “du” – ikki va “tor” – sim ma’nolarini anglatadi. Salohiddin Azizboyev dutorni O‘rta Osiyoda keng ommalashgan, mayin va xonaki tovushi bilan ajralib turadigan cholg‘u sifatida tavsiflaydi. Muallif, shuningdek, dutorning o‘zbek, turkman, tojik, uyg‘ur, Xorazm va qoraqalpoq musiqa amaliyotida turli ko‘rinishlarda uchrashini qayd etadi. [1, 163–164-b.] Bu ma’lumot dutorni yagona qolipdagi soz sifatida emas, turli hududiy madaniyatlar bilan aloqada shakllangan cholg‘u oilasi sifatida anglashga imkon beradi, deb aytish mumkin.

Dutorning konstruktiv tuzilishi uning ijro uslubiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Kosa, qopqoq, dasta, bo‘g‘iz, quloqlar, xarraklar va bog‘lama pardalardan tashkil topgan bu cholg‘uda materialning yengilligi va rezonans xususiyati muhimdir. An’anaviy dutorlarda metall qismlarning deyarli ishlatilmasligi, torlarning ipak yoki zamonaviy tolalardan tayyorlanishi tovushga yumshoqlik beradi. Dastadagi pardalarning joylashuvi esa kuy yo‘lining intonatsion aniqligi bilan birga, ijrochining chap qo‘l harakatlarini ham belgilaydi. Shu ma’noda dutor sozining tashqi shakli va ijro texnikasi bir-biridan ajralmaydigan ikki qatlamdir. Ayrim manbalarda dutorning torlari kvarta, kvinta, unison hamda ayrim holatlarda oktava munosabatida sozlanishi ko‘rsatiladi. [1, 166–167-b.] Sozlash turi repertuar, mahalliy an’ana va ijro maqsadiga qarab tanlanadi. Sozandaga qulay bo‘lgan sozlashning o‘zi yetarli emas: ochiq torlarning rezonansi kuy pardalari bilan uyg‘unlashishi, asosiy tayanch tovushlarni mustahkamlashi va fraza yakunlarida tabiiy jarang hosil qilishi kerak. Demak, dutor sozlash amaliyoti texnik tayyorgarlik bosqichi bo‘lish bilan birga, kelajakdagi badiiy talqinning akustik poydevorini ham yaratadi.

Dutor ijrochiligining eng murakkab sohasi o‘ng qo‘l zarblaridir. Cholg‘u ko‘rinishidan sodda bo‘lsa ham, zarb turlarining ko‘pligi ijrochidan har bir harakatning yo‘nalishi, kuchi, tezligi va tembr natijasini nazorat qilishni talab qiladi.

Azizboyev dutorda yakka zarb, tanovar zarbi, teskari zarb, qo‘sh zarb, bilak zarbi, ufor zarbi, zarbi parron va pirrang singari usullar qo‘llanishini qayd etadi. [1, 167-b.] Mazkur zarblar faqat ritmik formulalar emas, balki ularning har biri kuy xarakteri, fraza tuzilishi va usulning ichki urg‘ulariga qarab turlicha badiiy vazifa bajaradi.

Yakka zarbda tovushning ravshanligi va yo‘nalishi yetakchi bo‘lsa, qo‘sh va teskari zarblarda harakatlarning muvozanati muhimlashadi. Terma zarb melodik chiziq ichidagi ayrim tovushlarni ajratib ko‘rsatishga, bilak zarbi esa ijroga kengroq impuls va dinamik kuch berishga xizmat qilishi mumkin. Ufor xarakteridagi zarblarda ritmik yengillik, harakatning uzluksizligi va raqsona kayfiyat ustun turadi. Pirrang kabi murakkabroq zarb shakllari esa sozandaning o‘ng qo‘l koordinatsiyasini, tembr sezgirligini va usulni ichdan his qilish qobiliyatini namoyon etadi. Shuning uchun dutor zarblarini faqat mexanik mashqlar ketma-ketligi sifatida o‘rgatish ularning asl badiiy vazifasini toraytiradi.

Rez dutor ijrosining alohida ifoda vositasidir. Manbada rezning ko‘rsatkich barmoq bilan pastga-yuqoriga tez va uzluksiz chertish hamda bosh va ko‘rsatkich barmoqlarining navbatma-navbat harakati orqali bajariladigan ko‘rinishlari bayon qilingan. [1, 167-b.] Amaliy ijroda rezning sifati tezlik bilan emas, tovush oqimining bir tekisligi, dinamik boshqaruv va fraza nafasi bilan baholanadi. Juda kuchli rez dutorning tabiiy mayin tembrini qo‘pollashtirishi, haddan tashqari sust rez esa kuy chizig‘i yaxlitligining buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu bois rezda texnik barqarorlik badiiy eshituv bilan birga shakllanishi lozim.

Chap qo‘l texnikasi ham dutorning ifodaviy imkoniyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Parda bosishdagi ortiqcha kuch tovushning tabiiyligini kamaytiradi, yetarli bo‘lmagan bosim esa jarangning xiralashishiga olib keladi. An’anaviy ijroda tovushlar orasidagi bog‘lanish, mayda sirg‘alishlar, bezaklar va intonatsion nozikliklar kuyga nutqiy ifoda bag‘ishlaydi. Bunda chap qo‘l

bezagi o‘ng qo‘l zarbidan mustaqil emas: bezakning boshlanish nuqtasi, davomiyligi va yakuni zarbning energiyasi bilan muvofiqlashgandagina tabiiy musiqiy jumla yuzaga keladi.

Dutorning yana bir muhim xususiyati — kuy va usulni bir cholg‘uning o‘zida uyg‘unlashtirish imkoniyatidir. Azizboyev torli-chertma cholg‘ular orasida dutorda bir vaqtning o‘zida melodik yo‘l va usulni ifodalash imkoniyati mavjudligini ta’kidlaydi. [1, 163-b.] Bu xususiyat yakkanavozlikda ayniqsa seziladi: sozanda bir tomondan asosiy ohangni olib boradi, ikkinchi tomondan zarblar vositasida ritmik tayanch yaratadi. Natijada dutor ijrosi bir ovozli kuy ko‘rinishidan chiqib, ichki ko‘p qatlamlilikka ega bo‘la boshlaydi.

Mumtoz repertuarni dutorda ijro etishda frazalash masalasi alohida ahamiyatga ega. Kuy jumlalarini faqat nota davomiyligiga qarab bo‘lish yetarli emas; tayanch pardalar, avjga tomon harakat, qaytish nuqtalari, ritmik zichlashuv va bo‘shashuvlar ham hisobga olinadi. Dutorning tabiiy tovush hajmi ijrochidan dinamikani nozik darajalarda boshqarishni talab qiladi, shu bilan birga kuchli va sust tovushlar o‘rtasidagi keskin tafovutdan ko‘ra, mayda dinamik o‘zgarishlar, zarbning zichligi va tembr ranglari orqali rivoj yaratish ushbu cholg‘u tabiatiga mos keladi.

Dutor ijrochilik an’analari hududiy maktablar bilan chambarchas bog‘langan. Manbalarga ko‘ra XX asrga kelib Xorazmda Nurmuhammad Boltayev, Pahlavon Rasulov va Yusuf Jabborov; Toshkentda Orif Qosimov, Mahmud Yunusov, Sayfiddin Yo‘ldoshev, Zokirjon Obidov, Turg‘un Alimatov, Faxriddin Sodiqov va G‘ulomjon Qo‘chqorov; Andijonda esa Muhiddin Hoshim va Qo‘zixon Madrahimov singari ijrochilar nomi tilga olingan. [1, 165-b.] Ushbu ro‘yxat dutorchilikning bir markaz doirasida emas, turli mahalliy estetik mezonlar asosida rivojlanganini ko‘rsatadi.

Xorazm dutor an’anasi yirik turkumli ijro tafakkuri bilan ham e’tiborlidir. “Xorazm dutor maqomlari”ning mavjudligi cholg‘uning nafaqat maishiy yoki

jo‘rnavozlik vazifasida, balki murakkab professional musiqiy shakllarni tashuvchi vosita sifatida shakllanganidan dalolat beradi. [1, 165-b.] Bunday repertuar sozandadan usulni aniq his qilish, uzun shakl davomida dramaturgik rivojni saqlash va har bir bo‘lakning umumiy turkumdagi vazifasini anglashni talab etadi. Maqom cholg‘u yo‘llarida parda, usul va turkumiylikning o‘zaro bog‘liqligi muhim bo‘lib, Mushkilot tarkibidagi cholg‘u qismlarida usuliy rivoj hamda maqomning badiiy qiyofasi yaxlit holda namoyon bo‘ladi. [3, 44–45-b.] Shu jihatdan dutor ijrochisi kuylarni yod oluvchi emas, shaklni ichki mantiq asosida boshqaruvchi talqinchi sifatida namoyon bo‘lishi kerakligini anglatadi.

Toshkent-Farg‘ona ijro muhitida dutorning mayin tembri, nafis zarblar va ashula yo‘llariga yaqin frazalash tamoyillari muhim o‘rin tutadi. Bu maktabda cholg‘u ohangining “gapirishi”, ya’ni musiqiy jumlaning tabiiy nafas bilan rivojlanishi ijroning asosiy sifatlaridan biri sifatida qaraladi. Maqom an’analarining hududiy ko‘rinishlari tarixiy taraqqiyot davomida o‘ziga xos ijro mezonlarini shakllantirgan; Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari shu jihatdan alohida tarixiy-nazariy tizimlar sifatida yoritiladi. [4, 56–57-b.] Turg‘un Alimatov va Faxriddin Sodiqov singari ustozlar faoliyati dutor, tanbur va boshqa cholg‘ular o‘rtasidagi uslubiy almashinuvni ham ko‘rsatadi. Bunday almashinuv natijasida zarb, bezak va frazalashning yangi qirralari paydo bo‘lib, an’ana qotib qolgan shakl emas, balki ijodiy davomiylik sifatida yashaydi. Faxriddin Sodiqovning ijodiy shakllanishi ham ustoz-shogird tizimining amaliy kuchini ko‘rsatadigan misollardan biridir. “O‘zbek musiqasi tarixi” manbasida uning dutor chalishni dastlab mahalla muhitida o‘rgana boshlagani, keyinchalik Abdusoat Vahobdan dutor chertishni puxta egallagani qayd etilgan. [2, 45-b.] Bu holat an’anaviy ta’limda dastlabki eshituv va taqlid tajribasi keyinchalik professional ustoz rahbarligida tizimli mahoratga aylanishini ko‘rsatadi. Dutor

pedagogikasida ham ana shu ikki bosqich — tabiiy musiqiy muhit va maqsadli kasbiy mashg‘ulot — bir-birini to‘ldiradi.

Ustoz-shogird an’anasi dutorda zarbning tashqi shaklini emas, balki uning ichki ma’nosini o‘rgatishi bilan qimmatlidir. Bir xil zarb belgisi turli kuyda turlicha og‘irlik, tezlik yoki tembr bilan ijro etilishi mumkin. Nota matni bunday nozik farqlarni to‘liq qayd eta olmaydi. Ustozning namoyishi, shogirdning takrori, eshitish orqali tuzatish va ko‘p marotaba ijro etish jarayoni natijasida uslubiy xotira shakllanadi. Zamonaviy ta’limda video va audio yozuvlar bu jarayonni qo‘llab-quvvatlashi mumkin, ammo ular bevosita ustoz nazoratining o‘rnini to‘liq bosa olmaydi. Dutor ijrochiligini o‘qitishda texnik mashqlarni repertuar bilan bog‘lash samarali yondashuvdir. Masalan, teskari yoki qo‘sh zarb alohida mashq qilingach, u aynan shu zarb tabiiy eshitiladigan kuy jumlasida mustahkamlanishi kerak. Rez ustida ishlaganda esa tezlikni oshirishdan oldin bir tekis tovush, bilak erkinligi va frazaning dinamik yo‘nalishi nazorat qilinishi lozim. Chap qo‘l bezaklari ham kuy mazmunidan ajratilmasligi kerak. Shu tariqa texnika maqsad emas, badiiy fikrni aniq va tabiiy ifodalash vositasiga aylanib boradi.

Ansambl ijrosida dutorning vazifasi yakkanavozlikdan farq qiladi. Maqom ansambllarining dastlabki tarkibida tanbur, dutor, g‘ijjak, nay va doyra singari cholg‘ularning mavjud bo‘lgani qayd etiladi. [1, 16-b.] Shashmaqomning cholg‘u yo‘llari maqomning parda va usul tizimini ansambl ijrosida yaxlit namoyon etib, cholg‘ular o‘rtasidagi tembr va ijroviy muvozanatni talab qiladi; Yunus Rajabiy tomonidan Shashmaqom nota matnlarining tizimlashtirilib nashr etilishi ushbu merosning ta’lim va ijrochilik amaliyotida saqlanishiga muhim zamin yaratgan. [5, 4–6-b.] Ansamblda dutor o‘zining yumshoq tembri bilan umumiy tovush massasini qalinlashtirishdan ko‘ra, ritmik-harmonik tayanch, nozik jo‘rnavozlik va tembr muvozanatini yaratishga xizmat qiladi. Sozanda bu sharoitda o‘z zarbini boshqa cholg‘ular artikulyatsiyasi bilan muvofiqlashtirishi, ayniqsa doyra usuli va tanbur

zarbi bilan bir butun ansambl nafasi hosil qilishi zarur. Dutorning badiiy imkoniyatlarini baholashda “baland ovoz” mezoni asosiy bo‘la olmaydi. Cholg‘uning kuchi uning tembr nozikligi, zarb ranglari va ijrochining mayda dinamik farqlarni boshqara olishida namoyon bo‘ladi. Past va o‘rta registrlarda hosil bo‘ladigan yumshoq jarang, ochiq torlarning rezonansi, bir tovushdan ikkinchisiga tabiiy o‘tishlar tinglovchida yaqinlik hissini uyg‘otadi. Shu sababli dutor ijrosida ortiqcha kuch ishlatishdan ko‘ra, tovushning “ichki og‘irligi”ni topish muhimroq sanaladi.

Bugungi akademik ta’lim sharoitida dutor ijrochiligi ikki vazifani bir vaqtda bajarishi kerak: tarixiy ijro mezonlarini saqlash va yosh sozandaning ongli talqin qobiliyatini rivojlantirish. Buning uchun repertuarni faqat nota bo‘yicha o‘zlashtirish yetarli emas. Ustoz ijrolarini qiyosiy tinglash, bir kuyning turli variantlarini tahlil qilish, zarb va bezaklarning vazifasini izohlash, hududiy uslublarning farqlarini amaliy ijroda ko‘rsatish zarur. Bunday yondashuv shogirdni tayyor qolipni takrorlovchi emas, an’anani tushunib davom ettiruvchi ijrochiga aylantirishi ma’lum. Olib borilgan natijalar dutor ijrochiligida to‘rtta o‘zaro bog‘liq qatlam mavjudligini ko‘rsatadi: cholg‘uning konstruktiv-akustik tabiati, o‘ng qo‘l zarb tizimi, chap qo‘l intonatsion-bezak vositalari va hududiy-uslubiy talqin. Ushbu qatlamlardan birini boshqasidan ajratib o‘rganish amaliy natijani cheklaydi. Masalan, zarbni faqat tezlik nuqtayi nazaridan takomillashtirish tembr va frazalashni zaiflashtirishi mumkin; bezaklarni ko‘paytirish esa uslubiy me’yor buzilganda kuy mazmunini xiralashtiradi. Mukammal ijro texnik imkoniyatlar badiiy maqsadga bo‘ysundirilgan holatda yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, dutor o‘zbek an’anaviy cholg‘u ijrochiligining serqirra va tarixiy jihatdan barqaror qatlamlaridan biridir. Uning ikki torli sodda tuzilishi ortida murakkab zarb tizimi, nozik intonatsiya, tembr boshqaruvi, frazalash va uslubiy tafakkur mujassam. Yakka, qo‘sh, teskari, terma, bilak va ufor zarblari, rez

hamda pirrang kabi usullar ijro texnikasining alohida elementlari bo‘lish bilan birga, kuy xarakterini ochuvchi badiiy vositalardir. Hududiy ijrochilik maktablari va ustoz-shogird an’anasi esa bu vositalarning mazmunini avloddan avlodga yetkazib keluvchi muhim omildir. Dutor ijrochiligini kelgusida ilmiy o‘rganishda tarixiy audio yozuvlarni zamonaviy ijrolar bilan qiyoslash, zarb turlarining akustik xususiyatlarini tahlil qilish, Xorazm dutor maqomlari hamda Farg‘ona-Toshkent dutor repertuarining ijro mezonlarini alohida tadqiq etish muhimdir. Ta’lim amaliyotida esa har bir texnik usulni aniq repertuar namunasi bilan bog‘lash, ijrochining eshituv nazoratini kuchaytirish va nota matni bilan og‘zaki an’ana o‘rtasidagi muvozanatni saqlash maqsadga muvofiq. Ana shunda dutor merosi muzeylashgan hodisa emas, zamonaviy sahna va ta’limda tabiiy rivojlanayotgan tirik ijrochilik maktabi sifatida davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizboyev S. Ansambl bilan ishlash uslubiyoti: darslik. – Toshkent: Fan ziyosi, 2023. – 288 b.
2. Jabborov A., Begmatov S., Azamova M. O‘zbek musiqasi tarixi: darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 204 b.
3. Ibrohimov O. Maqom asoslari. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023.
4. Ibrohimov O. Maqomlar tarixi va nazariyasi. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023.
5. Rajabiy Y. O‘zbek maqomlari. Shashmaqom. – Toshkent: badiiy-ilmiy nashrlar turkumi.

References

1. Azizboyev, Salohiddin. *Ansambl bilan ishlash uslubiyoti* [Methods of Working with an Ensemble]. Tashkent: Fan ziyosi, 2023.
2. Jabborov, A., S. *Begmatov, and M. Azamova. O‘zbek musiqasi tarixi* [History of Uzbek Music]. Tashkent: Fan va texnologiya, 2018.
3. Ibrohimov, Oqilxon. *Maqom asoslari* [Fundamentals of Maqom]. Tashkent: Donishmand ziyosi, 2023.
4. Ibrohimov, Oqilxon. *Maqomlar tarixi va nazariyasi* [History and Theory of Maqoms]. Tashkent: Donishmand ziyosi, 2023.
5. Rajabiy, Yunus. *O‘zbek maqomlari. Shashmaqom* [Uzbek Maqoms: Shashmaqom]. Tashkent: badiiy-ilmiy nashrlar turkumi, n.d.